

**MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA BOLALAR IJROCHILIGINI
SHAKLLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA**

Nabiyeva Muxlisaxon O'ktamjon qizi¹

¹*Farg'onan davlat universiteti I kurs magistranti*

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

**MAQOLA
TARIXI:**

Received: 20.01.2025

Revised: 21.01.2025

Accepted: 22.01.2025

Ushbu maqolada musiqa madaniyati darslari samaradorligini oshirishning bolalar ijrochiligining dolzarb masalalari haqida so'z yuritigan. Muoammo va uning yechimlari tahlil qilingan.

KALIT SO'ZLAR:

*ijrochilik, ijodkorlik,
malaka, ijro mahorati,
bolalar cholg'u
ijrochiligi, musiqiy
tarbiya, musiqiy
faoliyat*

KIRISH. Hozirgi kunda butun dunyoda umumiy o'rta ta'lif tizimida musiqa ta'limi va tarbiyasini shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur masala mamlakatimiz va xorijda faoliyat olib borayotgan bir qator olimlar (xususan, R.Qodirov, N.A.Vetlugina, A.N.Zimina, O.P.Radinova, A.I.Katine, M.L.Palavandishvili va boshqalar)ning ishlarida e'tirof etilayotgan masalaning ayrim jihatlari qisman atroficha yoritib berilgan.

Bolalarda cholg'u ijrochiligin rivojlantirish masalalari (L.N.Komissarova, E.P.Kostina, L.I.Melnikova, A.N.Zimina, E.N.Nikolaeva va boshqa ayrim olimlarning ilmiy izlanishlarida o'z ifodasini topgan bo'lsa-da, biroq xalq cholg'u asboblari vositasida bolalarda musiqiy ijrochilikni shakllantirish masalasi bir qadar o'rganilmaganligini ko'rishimiz mumkin. Tadqiqotning nazariy asoslarini ishlab chiqish uchun pedagogik va psixologik manbalar asosida maktab yoshidagi bola shaxsining ijodiy yo'nalganligi,

musiqiy asarni idrok etish asosida rivojlantirish mumkinligi haqidagi nuqtai nazarlarini o‘rganish katta ahamiyat kasb etdi.

Ijod – insonning yangi moddiy va ma’naviy ne’matlar yaratish faoliyati. Unda inson tafakkuri, xotirasi, tasavvuri, diqqati, irodasi faol ishtirok etadi, butun bilimi, tajribasi, iste’dodi namoyon bo‘ladi. Ijod dastlab inson tasavvurida tug‘iladi, keyin ijodga taalluqli masalalar yuzasidan izlanishlar olib boriladi.

O‘sib va rivojlanib kelayotgan shaxsni ijodga jalb qilish – hamma davrlarda jamiyat oldida turgan eng muhim vazifalardan biri bo‘lgan va hozir ham shunday. Uni hal qilish borasida olimlar va amaliyotchilar, o‘qituvchi va psixologlar, ota-onalar tinimsiz ishlaydi. Bolalar ijrochilagini rivojlantirishning asosiy shartlaridan biri faoliyatning o‘yinli, o‘quv, badiiy-nutqiyligi, teatrlashtirilgan, musiqiy kabi turlariga e’tiborning ustuvor darajada bo‘lishidir. Musiqiy tarbiya, musiqiy faoliyat estetik tarbiyaning asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida barkamol avlodni tarbiyalashda etakchi o‘rin tutadigan yo‘nalishlardan biri sanaladi. Uning bola tarbiyasidagi roli, birinchidan, musiqaning san’at turi sifatida o‘ziga xosligi, ikkinchidan esa, bola yoshining o‘ziga xosliklari bilan belgilanadi. Musiqa mohiyati bevosita mazmuniga ko‘ra B.M.Teplov aytganidek, shu kabi ajoyib xususiyatlariga binoan musiqa emotsiyonal bilishga aylanadi va insonning, ayniqsa, bolalikda emotsiyonal sohasi rivoji uchun hech nima bilan tenglashtirib bo‘lmaydigan imkoniyatlar yarata oladi.

Emotsional mazmun, insonning o‘z individualligi orqali ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish mexanizmlari universal bo‘lib, hamma yosh davrlarida amal qiladi. Maktab yoshida bolaning qiziqishlari predmet olami bilan bog‘liq. O‘zining qiziqishlarini hissiy munosabatlar orqali ifoda qilish imkoniyati bolalarga o‘zining noyobligini his qilishga sharoit yaratadi. Bu yoshdagи bolalar uchun kattalarga nufuzli, e’tiborli inson va taqlid uchun namuna sifatida yo‘nalganlik (orientirlanish) xosligi bu kabi yondashuvni kuchli bir rivojlantirish vositasiga aylantirib, nafaqat bolaning ijodiy va intellektual rivojlanish darajasini tezlik bilan oshirish, balki uning xulqida ijobiy o‘zgarishlar qilish imkonini beradi.

Bolalar ijrochiligi mustaqil badiiy ijod emas, bu, birinchi navbatda, bolaning murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o‘zini o‘zi belgilashidir. Ijodda u o‘zini, o‘z tajribasini, o‘zining atrof olam, bolalar va kattalar olami bilan munosabatlari tajribasini anglab etadi. Tovush-ritmik va so‘z improvizatsiyalari, imo-ishora raqs bilan birga bolalar uchun hamisha xosdir. Biroq kattalar bolalarning bola bo‘lish huquqini tan olishlari uchun yuz yilliklar kerak bo‘ldi . Unga qadar bolalik tez o‘tib ketadigan va ahamiyati katta bo‘lmagan davr deb

hisoblangan. Madaniyat hodisasi sifatida bolalik nisbatan keyin tan olindi. Bolaning iste'dodini tan olish nafaqat pedagogik, balki falsafiy va ma'naviy ahamiyatga ham ega.

N.S.Leytes bolalik davrida aqliy qobiliyatlarning namoyon bo'lishini ham ijodkorlik deb bilgan. O'z mashg'ulotlarida bola o'zlashtirganini yoki birovning topshirganini shunchaki takrorlamaydi, u – ijod sub'ekektidir. Bolalardagi aqliy faoliyat tonusining o'zi qobiliyatlarning erta uyg'onishi bilan ularni izlanishlarni chuqurlashtirish va kengaytirish, "noma'lumlikka sakrash" larga undaydi. Aynan ijodiy sa'y-harakatlar bolalarning aqliy o'sishdagi ehtiyojlariga mos keladi .

Ommaviy musiqiy tarbiyada ijodkorlikni qo'llashga imkon yo'q degan qarashlar ham mavjud. Buni faqat qobiliyatli bolalarga ijodkorlik namoyon eta olishi bilan izohlash mumkin. Pedagogika va psixologiya sohasidagi yangi yutuqlar musiqiy mashg'ulotlarning nafaqat estetik, balki intellektual rivojlanish uchun ham muhim ekanini isbotlab berdi. Musiqa bilan amaliy shug'ullangan bola musiqani tinglash bilan cheklangan bolaga qaraganda boshqacharoq o'laydi, his qiladi va rivojlanadi. SHu bois qator mamlakatlarda musiqa ta'limi va tarbiyasida tub islohotlar jiddiy tus olayapti. Masalan, Germaniyada tarbiya kompleksi yasli yoshidayoq musiqiy mashg'ulotlarni o'z ichiga oladi. U erda barcha yosh bosqichlarida musiqaga o'rgatish dasturi ishlab chiqildi. CHexiya, Slovakiya, Ruminiya kabi davlatlarda musiqiy tarbiya juda erta boshlanadi. Yaponiyada musiqiy tarbiya xuddi jismoniy tarbiya, yozishga o'rgatish, tasviriy san'at asoslarini o'rgatish kabi muhim sanaladi. Amerikaliklar musiqani barcha maktab fanlari bilan tenglashtirish va uni sifatli o'qitishni davlat oldida turgan muhim vazifa sifatida belgiladi.

Avstriyada bolalar yoshiga mos cholg'u asboblarini (naycha, fleyta, ksilosfon) chalish bilan Karl Orfning dunyoga mashhur maktab tizimi bo'yicha tarbiya boshlanadi. Uning asosiy asari "SHulverk"da musiqa materiali asosan olti yosh (va katta yoshli) bolalar uchun mo'ljallangan. Bu kabi musiqa chalishdan maqsad ijodiy qobiliyatlarini harakatda rivojlantirish sanaladi. Aynan shuning uchun u ham shakli, ham mazmuniga ko'ra maktabgacha yoshdag'i bolalar tabiatini va dunyo amaliyotida mavjud o'yinli metodikalar tamoyillariga tobora tabiiy ravishda mos keladi. Bolalarning musiqiy faoliyatiga rang-baranglik baxsh etib, E.N Nikolaeva musiqalashning sintetik shakllarini topa bildi, u kuylash va harakat, she'rlarni ritmik o'qish bilan cholg'u asbobini chalishni birlashtirdi .

Ijodiy rivojlanish – shaxsning barcha individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil qilingan jarayon bo'lib, uning maqsadi bolani mustaqil tovush echimlarini izlash, kuzatish, kashfiyotlarga yo'naltirishdan iborat. Elementar musiqa chalish metodini ta'limning boshlang'ich davrida qo'llash o'quvchining, hatto bu ijodiy urinishlar juda

kamtarin bo'lsa ham, musiqiy tafakkurini rivojlantirishga ko'maklashadi. Bolalar oson va tabiiy tarzda ijodkorga aylanadi, ular quvonch bilan mustaqil o'ylab topish imkoniyatidan foydalanadi. "Men bilmayman", "menga o'rgatishmagan" kabi komplekslar yo'qoladi. Engil, avtoritar bo'Imagan muloqot rolli o'zgarishlar uchun imkon beradi, murakkab vaziyatlarda hazil, kulguni ko'zda tutadi. Erkin, xayrixoh muloqot muhiti uning mohiyati – bolalarning faol ijodiy faoliyatini amalga oshirish imkonini beradi. Bunday o'yin faoliyati natijalari bolalar uchun tobora tabiiy ijod sifatida elementar impoovizatsiya ko'rinishlaridan iborat bo'ladi.

Harakatli, instrumental, intonatsion-nutqiy, vokal improvizatsiyalar va ularning turli kombinatsiyalari musiqiy pedagogikaning eng murakkab masalasi – ijod orqali tarbiyalash va o'qitish vazifasini hal qiladi. G'oyalarning spontanligi, tezkorligi va hayratliligi, bola uchun dasturlanmagan vaziyatlar, o'yin, muloqot bolalar faoliyatining asosini tashkil qiladi. "CHalib ber, to'xta, yugur, istaganingdek" – bu so'zlar bola oldida fantaziya, kashfiyot, topqirlik eshigini keng ochadi. Bunda u hech bir cheklov bilan chegaralanmaydi. Bunda u xato qilishdan cho'chimaydi, chunki hammasi ko'p variantli. Atrofdagilar uchun alohida sa'y-harakatlarsiz yoqimli bo'lish bolaga o'z-o'zidek bo'lish, o'z individualligini namoyon qilish imkonini yaratadi. Bolaning rivojlanishi shundan iboratki, u aslida boricha bo'ladi, o'z-o'ziga aylanadi, degan edi A.A.Melik-Pashaev .

Musiqiy ijrochilik tarkibini aniqlash bolaning u yoki bu musiqiy faoliyat turi bilan shug'ullanishida aynan asqotadigan musiqiy qobiliyatlarni belgilash imkonini beradi. Musiqiy qobiliyatlarni shakllantirish va rivojlanishning asosiy jihatlari kishining individual o'ziga xosliklaridagi asosiy xususiyat bo'lib hisoblanadi. Aynan mana shu qibiliyatlar kishining shaxs sifatida shakllanishini belgilaydi va uning individualligini yorqinlik darajasini shartlaydi.

Umuman olganda, musiqa pedagogikasi ta'lim tizimida nafaqat yurtimizda, balki chet el musiqa ta'limi tizimi shakllanishi va rivojlanishining turli bosqichlarida maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarida musiqiy qobiliyatni rivojlanish muammosining nazariy va amaliy jihatlarini ishlab chiqish, shuningdek, uning muhim tushunchalarini aniqlash bilan bog'liq turli qarashlar, munozara talab o'rirlari mavjud. A.A.Vengerning ta'kidlashiga ko'ra, qibiliyatlar muammosi umumiy va yosh psixologiyasida markaziy, asosiy muammolardan biridir. Ayni chog'da u o'z tadqiqotining qadimgi tarixiga ega va shu paytgacha ham psixologiyada eng murakkab va ishlab chiqilmagan muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strateriyasi to'g'risida // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. – T., 2017.-- B. - 38.
2. Azimov K. O'zbek xalq cholq'u asboblari havaskorlik orkestri bilan ishlash uslubiyati. – T., 2002. –B. 106.
3. Akbarova R.T. Musiqa bo'limi. Bolalar ta'lim-tarbiya dasturi. – T.:O'qituvchi, 1998. 58 - b.
4. Baxriev A. O'quvchilarda milliy musiqiy tasavvurlarni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini rivojlantirish: Avtoreferat. – T., 2004. 234 - b.
5. Barenboym L. A. Muzikalnaya pedagogika i ispolnitelstvo. –L., 1974.

